

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**

доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Karimov Bobir</b> “MAHALLABAY” ISHLASH TIZIMI NEGIZIDA INSON SALOHİYATINI RO‘YOBGA CHIQRISH KOMPETENSIYALARI.....	5
<b>2. Kulbekova Nasiba</b> INSON SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA TA‘LIM TIZIMINING O‘RNI.....	12
<b>3. Инаков Комил, Абдугафурова Чарос</b> МОЛОДЕЖЬ КАК РЕСУРС РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА.....	19
<b>4. Узакова Зарина</b> ПОТРЕБНОСТИ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ (ЧС): РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА.....	27
<b>5. Dulanbayeva Oygul</b> MUALLIFLIK STRATEGIYASI ZAMONAVIY MUTOLAA DIDINI SHAKILLANTIRISH MEKANIZMI SIFATIDA.....	34
<b>6. Hojiyev Zavqiddin</b> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	40
<b>7. To‘raev Odiljon</b> AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH ORQALI IJTIMOIIY XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	50
<b>8. To‘raxo‘jaeva Ra‘no</b> DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI XODIMLARINING MAXSUS KOMPETENSIYALARI.....	59
<b>9. Abdikadirova Nigora</b> INSON SALOHİYATI: NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	66
<b>10. Tadjikhojaev Botir</b> DAVLAT BOSHQARUVIDA XARIZMATIK SHAXSLAR FAOLIYATINING SOSIOLOGIK TAHLILI.....	71
<b>11. Xolmurodov G‘ulom</b> O‘ZBEKISTONDA MAHALLA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	78
<b>12. Axmedova Shaxnozaxon</b> OILA-NIKOH MUNOSABATLARINI O‘RGANISHDAGI SOTSIOLOGIK NAZARIY YONDASHUVLAR.....	91


# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Abdikadirova Nigora,**

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti  
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida dotsent v.b.  
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
e-mail:abdikadirovanigora004@gmail.com

### INSON SALOHİYATI: NAZARIY YONDOSHUVLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15132704>

#### ANNOTASIYA

XX asr boshlaridan inson salohiyati muammosi dolzarb xususiyat kasb eta boshladi. Inson salohiyati faqat jamiyatning iqtisodiy ehtiyojini qondiruvchi kuch sifatida yoki bir iqtisodiy ishlab chiqaruvchi manba sifatida qaralmasligi, aksincha, inson salohiyati jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida namoyon bo‘lishi nazarda tutilishi lozim. Ushbu maqolada bo‘sh vaqtning inson salohiyatini rivojlantirishdagi o‘rni va uning ijtimoiy hayotga ta’siri tahlil qilinadi. Inson salohiyati – bu shaxsning intellektual, ijtimoiy, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarining majmui bo‘lib, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun muhim. Inson salohiyatini oshirishda vaqtni samarali boshqarish katta ahamiyatga ega. Bo‘sh vaqtdan foydalanish insonning ruhiy, jismoniy va aqliy taraqqiyotiga ta’sir qiladi.

**Kalit so‘zlar:** inson salohiyati, bo‘sh vaqt, intellektual rivojlanish, kasbiy o‘shish, jismoniy salomatlik, psixologik barqarorlik, ijtimoiy faoliyat, vaqtni rejalashtirish, ijtimoiy hayot, ijtimoiy qobiliyat.

**Абдикадирова Нигора,**

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта  
И.о.доцент кафедрой социально-гуманитарных дисциплин  
доктор философии (PhD) по социологии  
e-mail:abdikadirovanigora004@gmail.com

### ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

#### АННОТАЦИЯ

С начала XX века проблема человеческого потенциала приобрела актуальный характер. Следует иметь в виду, что человеческий потенциал рассматривается не только как сила, удовлетворяющая экономические потребности общества, или как единый источник экономического производства, но и наоборот, как важный фактор развития общества. В данной статье анализируется роль свободного времени в развитии человеческого потенциала и его влияние на общественную жизнь. Человеческий потенциал – это совокупность интеллектуальных, социальных, физических и творческих способностей человека, которая важна для его личностного и профессионального развития. Эффективное управление

временем в повышении человеческого потенциала имеет очень большое значение. Использование свободного времени влияет на умственное, физическое и социальное развитие человека.

**Ключевые слова:** человеческий потенциал, свободное время, интеллектуальное развитие, профессиональный рост, физическое здоровье, психологическая устойчивость, социальная активность, планирование времени, общественная жизнь, социальная способность.

**Abdikadirova Nigora,**  
Uzbek State University of Physical Education and Sports  
Acting Associate Professor of the  
Department of Social and Humanitarian Disciplines  
Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology  
e-mail:abdikadirovanigora004@gmail.com

## HUMAN POTENTIAL: THEORETICAL APPROACHES

### ABSTRACT

Since the beginning of the 20th century, the problem of human potential has become relevant. It should be borne in mind that human potential is considered not only as a force that meets the economic needs of society, or as a single source of economic production, but, on the contrary, as an important factor in the development of society. This article analyzes the role of free time in the development of human potential and its impact on social life. Human potential is a set of intellectual, social, physical and creative abilities of a person, which is important for his personal and professional development. Effective time management in increasing human potential is of great importance. The use of free time affects the mental, physical and social development of a person.

**Keywords:** human potential, free time, intellectual development, professional growth, physical health, psychological stability, social activity, time planning, social life, social ability.

### KIRISH

Inson ijtimoiy taraqqiyotning sub'ekti va harakatlantiruvchi kuchi xisoblanib, uning salohiyat darajasi jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Jamiyatga aloqador har qanday masala inson va uning salohiyatiga aloqadorligidir. Jamiyat ijtimoiy sohalarining taraqqiyoti va buning natijasida yuzaga kelayotgan imkoniyatlar inson salohiyatining yuksalishi darajasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Inson salohiyati masalasi bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb masala bo'lib, jamiyatning rivojlanishi, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy taraqqiyoti uchun muhim omillardan biri hisoblanadi.

“Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi xalq birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday engilmas kuch manbai esa avvalo insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda”, – deydi Prezidentimiz [1].

**Inson salohiyati** (human potential) – insonning intellektual, emosional, jismoniy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlardan rivojlanish imkoniyatlarini anglatadi. Ushbu tushuncha insonning o'z ichki imkoniyatlarini to'laqonli ravishda ishga solish, shaxsiy rivojlanish va farovonlikka erishish maqsadida faoliyat yuritishini nazarda tutadi.

Bu konsepsiyaning yagona talqini yo'q bo'lib, uning barcha mavjud talqinlari ko'pincha noaniq bo'lib qolmoqda. Shuning uchun olimlar oldida inson salohiyati konsepsiyasini konseptual jihatdan ishlab chiqishdek muhim vazifa turibti.

### METODOLOGIYA

Salohiyat – iste'dodning bir turi bo'lib, insonning muayyan tarzda o'z ilhomini qabul qilishga tayyorlangandan so'ng yuz beradigan sifatidir. Yuksak aql, iste'dod egalari salohiyatli kishilar deyiladi. Salohiyat so'zi kishi yoki millatning ichki imkoniyatlari, to'la namoyon bo'lmagan kuch-quvvati ma'nosida ham ishlatiladi. Inson salohiyati – jamiyat taraqqiyotining muhim omili

hisoblanadi. U jismoniy, ma'naviy, intellektual va ijtimoiy imkoniyatlar majmuidan iborat bo'lib, uning rivojlanishi turli ijtimoiy omillarga bog'liqdir [2]. Sosiologik yondashuvlar inson salohiyatini o'rganishda muhim o'rin tutadi va uning turli aspektlarini tadqiq qilish imkonini beradi.

Sosiologiya ko'p paradigmali fan bo'lib, bunda sosiologlar "inson salohiyati" nima ekanligi haqida umumiy fikrga ega emaslar. Shu nuqtai nazardan, sosiologik munozaralarda iqtisodiy nuqtai nazar bilan uyg'un talqin etish juda keng tarqalgan: inson salohiyati tushunchasi inson kapitali bilan bir xil toifalarda ko'rib chiqiladi.

Boshqacha qilib aytganda, bu mehnat bozorida va undan tashqarida ishlatiladigan shaxsning ma'lum bir "faolligi". Uning asosiy tarkibiy qismlari ta'lim va malakadir, ammo konsepsiya mazmuni shaxsiy xususiyatlarni o'z ichiga olgan holda kengaytiriladi. Bularga misol qilib iqtisodiyotda kamdan-kam e'tibor qaratiladigan qadriyatlar tushunchasi, manfaatlar va boshqa ko'plab parametrlarning tuzilishini kiritish mumkin. Bundan tashqari, sosiologlar, iqtisodchilardan farqli o'laroq, inson salohiyatining namoyon bo'lishini nafaqat mehnat bozori va bandlik, balki boshqa sohalarda ham ko'rib chiqadilar.

### ASOSIY QISM

Inson salohiyatining rivojlanishida bir qator nazariy tafsirlar mavjud. Bularning aksariyati shaxsiy rivojlanish, ma'naviy va psixo-emosional salomatlik, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6097-son 2020-yil inson taraqqiyotiga kapitaliga qaratilgan strategik reja qabul qilindi. Farmon va qarorlari hamda hukumatimiz tomonidan bu borada qabul qilinayotgan dasturlar insonga va uning salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan, deb aytish mumkin. Chunki insonning har qanday ongli faoliyati ma'lum samara va natijaga ega bo'lgani holda jamiyat tarixini harakatga keltiruvchi kuch bo'lib, bunday faoliyat jamiyat a'zolarining salohiyatini yuzaga chiqaradi. Bu borada ilm-fan taraqqiyotiga ulkan xissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosini yodga olish o'rinlidir. "Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg'or, taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgani barchamizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Bir o'ylab ko'raylik, ajdodlarimiz bunday yuksak cho'qqilarga qanday erishganlar? Ular, eng avvalo, jaholatga qarshi ma'rifat bayrog'ini baland ko'tarib, o'z aql-zakovati va salohiyatini bashariyat yaratgan ilm-fan yutuqlarini chuqur o'rganish va boyitishga bag'ishlaganlar [3].

Har bir inson boshidan komil emas ammo tug'ma ravishda o'ziga xos bo'lgan ichki shuur ila bosqichma-bosqich komillikka jiddu-jahd bilan intiladi" [4]. "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-birlariga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan etuklikka erishuvi mumkin.

Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va etuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni etkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va erning aholi yashaydigan qismiga o'rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi", – deydi Forobiy. Allomaning ta'kidlashicha, insonlar ana shu jamoada tinch va osoyishta yashashlari uchun, o'zaro ijtimoiy munosabatlarga kirishib, hamkorlikda bo'lib, bir-birlariga yordam berib, jamoa a'zolarini qo'llab-quvvatlab kun kechirishlari zarurdir. Inson ana shu fazilati tufayli hayvonot olamidanda ajralib turadi.

Jamiyatning yashashi va rivojlanishi uchun eng avvalo tinchlik, osoyishtalik zarur. Insonlar o'z ehtiyojlarini, orzu-umidlarini odamlar bilan hamkorlikda va o'zaro ko'maklashish tufayli qo'lga kiritadilar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, insonsiz jamoa, jamoasiz inson bo'lmaydi, jamoaning asosini inson tashkil etadi, insonning hayoti, uning ijtimoiy turmushi va amaliy faoliyati uchun jamoa zarurdir. Demak, Forobiy kishilar jamiyatining vujudga kelishini tabiiy-tarixiy jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Inson ana u jamoada individ sifatida dunyoga keladi, keyinchalik u ijtimoiy munosabatlar jarayonida rivojlanib ijtimoiy shaxsga aylanadi [5].

XX asr boshlaridan inson salohiyati muammosi dolzarb xususiyat kasb eta boshladi. Muammoni o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari dastlab G'arb olimlarining asarlarida aks etgan.

Bulardan A.Maslou o‘z konsepsiyasida inson salohiyati ehtiyojlarini tahlil qilib, uning potensialini yuzaga chiqarishi, shakllantirishi va bu jarayonning yuqori bosqichi sifatida o‘zini namoyon qila olish darajasiga olib kelishini bayon etadi. Inson ehtiyojlarining bosqichma-bosqich aks etuvchi jarayoni inson salohiyatini yuzaga chiqarish uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi. Maslou insonning ehtiyojlarini yangi darajada klassifikasiya qilgan. Unga ko‘ra, insonning asosiy ehtiyojlarini qondirganidan so‘ng, u yuqori darajadagi ma‘naviy va shaxsiy rivojlanishga intiladi. Maslouning fikricha, insonning "samarali" hayot kechirish uchun barcha ehtiyojlarini qondirish kerak [6].

Sosiologiyani rivojlanishiga katta xissa qo‘shgan olim **Talkot Parsons**ning funksionalizm nazariyasiga ko‘ra, inson salohiyati ijtimoiy institutlar orqali shakllanadi. Ta‘lim, mehnat bozori, oila va din insonning ijtimoiy salohiyatini rivojlantirishda asosiy rol o‘ynaydi.

Shuningdek, **Per Burde** g‘oyalari ko‘ra, inson salohiyati tabaqalangan jamiyatda notekis taqsimlanadi. Bunda, ijtimoiy tengsizlik, resurslarga ega bo‘lish imkoniyati va ta‘limga kirish imkoniyatlari inson salohiyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Per Burde “ijtimoiy kapital” va “madaniy kapital” tushunchalarini kiritib, inson salohiyatining rivojlanishi ijtimoiy muhit va resurslarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatgan.

**Jorj Gerbert Mid va Erving Goffman** singari olimlar inson salohiyatini shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy o‘zaro ta‘sir orqali shakllanishi nuqtai nazaridan o‘rgangan. Insonning rollari, shaxsiy identifikatsiyasi va ijtimoiy o‘zaro ta‘siri uning salohiyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini o‘z asarlarida ko‘rsatib o‘tgan [7].

Inson salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga ta‘sir etuvchi bir qancha muhim omillar mavjud:

- **Ta‘lim va malaka oshirish** – bilim va tajribani oshirish inson salohiyatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.
- **Ijtimoiy muhit va madaniy kapital** – insonning oilaviy tarbiyasi, do‘stlari va jamiyat bilan aloqalari uning salohiyatiga ta‘sir ko‘rsatadi.
- **Iqtisodiy resurslar va imkoniyatlar** – iqtisodiy holat va mehnat bozoridagi sharoitlar inson salohiyatining rivojlanishi uchun muhimdir.
- **Innovatsiya va texnologiyalar** – axborot texnologiyalari va zamonaviy vositalar inson imkoniyatlarini kengaytirishda muhim o‘rin tutadi.

MDH mamlakatlari olimlaridan L.Turov o‘z asarida inson salohiyati shakllanishi, inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi, ta‘lim sifati, sog‘liqni saqlash tizimidagi ijobiy o‘zgarishlari, inson kapitalini rivojlanish darajalari, intellektual salohiyati, iqtisodiy rivojlanishning intensiv ishlab chiqarish omillari, ish bilan bandlikning shakllanishi, mehnat resurslarining bilimli qismi, intellektual va boshqaruv mehnatiga doir masalalar tadqiq qilingan [8].

Inson salohiyati global miqyosda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi tomonidan qabul qilingan Inson kapitali rivojlanishi indeksi yordamida tahlil qilinadi. Tanqidlarga qaramay, bu ko‘rsatkich inson salohiyati prizmasi orqali turli mamlakatlarni bir-biri bilan solishtirish imkonini beradi [9].

Inson salohiyati unga mos ravishda erkinlik, boshqa insonlar bilan o‘zaro aloqadorlikda, yangi ehtiyojlarning yuzaga kelishi asosida yuzaga chiqadi. Inson potensialining taraqqiyoti davlatni yoki mamlakatni qanday kuchlar (pozitiv yoki reaksiya) boshqaruviga, ularning manfaatlarini va strategik maqsadlariga ham bog‘liq bo‘ladi. Bu jarayon bilan bog‘liq ravishda yana bir muammo, ya‘ni insonning mavjud salohiyatini saqlab qolish, rivojlantirish, ehtiyojlarni qondirish muammosi yuzaga keladi. Bu muammoning o‘z vaqtida hal etilishi esa inson faoliyatining doimiy amalga oshib borishi, faoliyatning kreativlik asosiga qurilganligi hamda o‘ziga o‘xshash insonlar bilan o‘zaro bog‘liqlikda amalga oshirilishini talab etadi.

Inson o‘zini va salohiyatini muntazam ravishda saqlab qolishi va uni boshqa insonlar bilan o‘zaro munosabat orqali ko‘paytirib va rivojlantirib borishi, o‘zaro ijtimoiy munosabatlarni kengaytirib borishi ob‘ektiv zaruriyat hisoblanadi. Chunki, inson individualligi, uning mohiyati va qobiliyatini yuzaga chiqarishdan mahrum bo‘lish, uning salohiyatini noto‘g‘ri tomonga ketib, agressiv xususiyat kasb etib borishiga ham sabab bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, jamiyatda inson salohiyatini to'g'ri amalga oshirish masalasi ham ijtimoiy muammo sifatida yuzaga chiqmoqda. Inson salohiyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratilishi, uni to'g'ri yo'naltirilishi bu jarayonning natijadorligiga ham bog'liq bo'lib, inson xatti-harakatlari va faoliyatining natijasini ko'rishi va uni qo'llay olishi muhim ahamiyatga ega. Inson salohiyatini rivojlantirish darajasi uning amalga oshirgan faoliyatining samaradorligi va uning birlamchi ehtiyojlarini qondirilganligi va turmush tarzi bilan aniqlanadi.

Demak, inson salohiyatiga insonning rivojlantirilmagan qobiliyatining lizasiya qilinmagan boshqa kapitalini ham kiritish mumkin ekan. Bular – iqtisodiy, intellektual, mafkuraviy, axloqiy-ma'naviy imkoniyatlar. Jamiyat va inson ehtiyojlaridan kelib chiqib, inson salohiyati zaxiradagi kapitalini ishga soladi va bu asosda davr talablariga javob beradi. Insonning jamiyatda faolligi, faoliyati salohiyat zaxirasining tobora kengayib borishiga xizmat qiladi. Bundan kelib chiqadiki, inson potentsiali muammosi bilan bog'liq ravishda realizasiya qilingan va realizasiya qilinmagan potentsial masalasi ham yuzaga keladi.

### XULOSA

Inson salohiyati jamiyatning barqaror va muvaffaqiyatli taraqqiyoti uchun muhim omil hisoblanadi. Buyuk jamiyatshunos, insonshunos olimlar ta'limoti o'zining g'oyaviy mazmuniga ko'ra juda serqirra bo'lib, uning inson aql-zakovatiga bergan yuksak bahosi, insonning ma'naviy kuchi, qobiliyatlarini va iste'dodini namoyish qila bilishi, umuman inson zotini ko'klarga ko'tarishi, ularning adolat, yaxshilik, insoniylik, do'stlik, kelajakka ishonch, adolatli davlat, fozil jamiyat, odil hukmdor, barkamol shaxs haqidagi o'y-fikrlari mustaqillik sharoitida alohida ahamiyatga ega bo'lib, unilarni o'rganishni davrni o'zi talab etmoqda. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Birinchidan, inson salohiyatini rivojlantirish ta'lim, iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy munosabatlar va innovasiyalar bilan bog'liq bo'lib, turli sosiologik yondashuvlar bu jarayonni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ikkinchidan, har bir shaxs va jamiyat o'zining inson salohiyatini to'laqonli rivojlantirish orqali umumiy farovonlikka erishishi mumkin.

Uchinchidan, inson salohiyatini rivojlantirishda bo'sh vaqtdan samarali foydalanish muhim rol o'ynaydi. Bu vaqtdan foydalanib, intellektual, ijtimoiy, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarni oshirish mumkin.

Demak, samarali rejalashtirilgan bo'sh vaqt insonning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun katta ahamiyatga ega. Shuning uchun har bir inson o'z vaqtdan unumli foydalanishi va uni shaxsiy taraqqiyotga yo'naltirishi zarur.

### Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. <https://president.uz/uz/lists/view/3373>
2. Человеческий потенциал для инновационной экономики. Колл. монография / Под. ред. С.А. Иванова. ИПРЭ РАН. СПб.: ГУАП, 2011.
3. <https://lex.uz/uz/docs/5073447>
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёвнинг ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган танатанали маросимдаги нуқти. 30 сентябрь 2020 йил.
5. Абу Наср Форобий. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. – Тошкент: Ёзувчи, 2002.
6. Маслоу А. По направлению к психологии бытия / пер. с англ. Е.Рачковой. – М.: Эксмо-Пресс, 2002.
7. Бегматов Э. ва бошқалар. Ўзбек тилининг изоҳли луғати; Ўз. ФА. А.Навоий номидаги тил ва адабиёт институти, “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2012.
8. Thurow L. Investment in Human Capital. Belmont, 1970. -104 p.
9. Доклад о человеческом развитии 2011. Устойчивое развитие и равенство возможностей. Лучшее будущее для всех. – М.: Весь Мир, 2011.

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000